

NIKOLAY KUZANSKIYNING FALSAFIY TA'LIMOTIDAGI ONTOLOGIK TAMOYILLAR

Madumarova Shoxsanam Muxtorali qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV 1-sonli Toshkent akademik litseyi yetakchi o'qituvchisi

Annotatsiya. N.Kuzanskiy falsafasida inson muammosi asosiy o'rinni egalladi. N.Kuzanskiy xristianlikdagi inson tug'risidagi g'oyalardan yuz o'girdi va bu borada insonni o'ziga xos «kichik olam» deb xisoblagan antik falsafiy g'oyalarga tayandi. «Kichik olam», ya'ni insonning o'zi va «katta olam», ya'ni universum «maksimal olam» — iloxiy mutloq tushunchalarni muomalaga kiritdi. Uning tushuntirishicha, kichik olam katta olamga, katta olam esa maksimal olamga o'xshaydi. N.Kuzanskiy insonni Xudoga shunchalik o'xshatadi, natijada inson iloxiylashtiriladi. N.K. in-sonni «insoniylikning Xudosi» yoki «insonlashgan Xudo» deb ataydi. Uning fikricha, inson cheklangan va cheklanmagan moxiyat, cheksizlik va chek-langanlikning dialektik birligidan iboratdir. Inson Xudo yaratgan jamiki mavjudotlarning hammasidan xam ustun turadi.

Kirish. Ko'plab Italiyalik gumanist (insonparvarlik harakati a'zolari) larning zamondoshi bo'lgan Nikolay Kuzanskiy (1401-1464) – Uyg'onish davrining teran faylasuflaridan biridir. Asli u Janubiy Germaniyadan (Kuza qishlog'i) bo'lib, kambag'al oiladan bo'lgan. Nikolay maktab yillaridayoq tasavvufchilarning («umumiy hayot og'alari») ta'sirini sezgan. Paduan universitetida lotin tili va grek tilini takomillashtirishdan iborat bo'lgan odatiy gumanitar ta'limdan tashqari Nikolay matematika va astronomiya bilan ham qiziqqan. Kelajakda u diniy karerani tanlashiga to'g'ri kelgan. N.Kuzanskiy Deventeradagi «Umumiy hayot birodarlari» uyushmasida umumiy ma'lumot olgach, o'qishni Gedelberg, Paduan untlarida davom ettirdi. So'ng Rim katolik cherkovining kardinali lavozimlarida ishladi. Uning faylasufi Uilyam Okkam ta'limoti bilan xar tomonlama tanishdi, uning ijtimoiy va falsafiy dunyoqarashida o'sha zamon ijtimoiy ongida sodir bulgan sekulyarizatsiya jarayonining ta'siri sezilarli bo'ldi. Shuningdek, N.Kuzanskiy ijodiga zamonasining antroposentrik qarashlari xam uz ta'sirini o'tkazdi. N.Kuzanskiy Paduan untida huquq muammolarini o'rganish jarayonida gumanizm g'oyalari bilan batafsil tanishdi. 1438 yilda teologiyadan doktorlik dissertasiyasini himoya qildi. O'zining «Asoslar hakida», «yashiringan Xudo haqida» kabi asarlarini yaratdi. Italiyalik gumanistlar bilan aloqa o'rnatgan yosh ruhoniylarning harakatlariga qamrab olinadi. Ehtimol Nikolay o'sha davrning hech biri faylasufi amalga oshirmagan ishni bajargan, ya'ni u o'z asarlarida va o'z faoliyatida o'rta asr madaniyati va shiddat bilan kirib kelayotgan insonparvarlik madaniyatini birlashtirgan. Bir tomondan, u – katolik cherkovining faol a'zosi, 1448 yilda papa-gumanist Nikolay V unga kardinallik lavozimini bergan, ikkinchi tomondan esa – ushbu papa atrofida shakllangan gumanistlar to'garagining faol ishtirokchisi bo'lgan. Bu erda hukm surgan muhitni namoyon qilish uchun faylasuf-kardinalning cherkov tinchligini buzuvchi Lorenzo Vall bilan bo'lgan ijobiy munosabatlarini ko'rsatish mumkin. Bolalikdagi do'sti Pikkolomini Piem II papasi maqomiga erishgandan so'ng Kuzanlikning ta'siri juda kuchayib ketdi, uning o'zi esa Rim cherkov ierarxiyasida ikkinchi shaxsga aylandi. Konfessional va ma'muriy tashvishlar Nikolayda samarali adabiy faoliyat bilan to'liq muvofiqlikda bo'lgan. U tomonidan lotin tilida traktat, mulohaza, suhbat janrlarida qator falsafiy asarlar yaratilgan. Uning shaxsiy ilmiy asarlari ham mavjud. O'zining zamondoshlari bo'lgan italiyalik faylasuf-gumanistlardan farqli ravishda Kuzanlik chuqur tarzda matematik va tabiatshunoslikka oid masalalar bilan qiziqqan, va ushbu qiziqishlardan tashqarida uning falsafiy asarlari tushunarsiz. Cherkovning yirik namoyondasi, tabiiyki, sof ilohiy asarlar ham yozgan (jumladan, pand-nasihatlari). Nikolay asarlarini falsafiy mazmun jihatidan teologik

asarlardan ajratib olish o'ta murakkab. Bu ma'noda u o'rta asrning teologiya va falsafani aralashtirib yuborish an'anasini davom ettirgan.

Kuzanlikning eng mashhur va ahamiyatli asarlaridan biri – “Olimona bilmasligi haqida” traktatidir ((«De docta ignorantia» - buni “Oqilona bilmaslik haqida”, “Biluvchi bilmaslik haqida” deb tarjima qilish mumkin, 1440). Unga boshqa traktat ham qo'shib ketadi – “Taxminlar haqida” (1444 yildan so'ng emas). 1450 yilda Nikolay “Sodda” nomi ostida to'rta suhbat yozgan. Ularning dastlabki ikkitasi “Donishmandlik haqida” nomiga ega, uchinchi esa – “Aql haqida” va to'rtinchi – “Og'irliklar bilan tajriba haqida” deb nomalanadi. Ushbu dialoglarning nomi ularning mohiyati kabi o'zining haqiqiy donishmandlik izlab rasmiy olimlik ishxonasining vakiliga emas, bulki soxta olimlik sababli o'z yo'ldan og'ishmagan, xalqdan chiqqan kishiga murojaat qilishdek gumanistik-demokratik g'oyasi bilan e'tiborni tortadi.

O'tish davri mutafakkiri, ya'ni Uyg'onish davriga o'tib borayotgan o'rta asr vakili sifatida Nikolay Kuzanskiy o'z asarlarida shu davrning turli, va ko'pincha qarama-qarshi tomonlarini ko'rsatib beradi. Tasavvufchi va yoshligidanoq uning o'zini tutishida namoyon bo'lgan mushohada qiluvchi sifatida u – safsatabozlik, ayniqsa inson fikrini xudoni anglash berik ko'chalariga olib kiruvchi safsatabozlikning dushmani bo'lgan. Nikolay esa aynan tasavvuf yo'ldan borgan holda samarali ilohiy tushunchalarga intilgan. Uning asarlari nomlarining o'zidanoq buni anglash murakkab emas – “Ko'zdan yashirin Xudo haqida”, “Xudoni izlash haqida”, “Xudoga farzandlik haqida”, “Dunyolar otasining hadyasi haqida” (ularning barchasi 1445-1447 yillarda yaratilgan), “Xudoni tasavvur qilish haqida” (1453), ular tajribaga asoslanmagan quruq muhokamaga asoslangan. “Olimona bilmaslik haqida” va “Taxminlar haqida” asarlari dunyo yuzini ko'rgandan so'ng, ayniqsa 1450 yildan so'ng, “Sodda” suhbatlari yozilgandan so'ng faylasuf-kardinalning tasavvufga oid qiziqishlari kuchayib ketadi. Va bu uning Xudo tushunchasini mavhum-falsafiy jihatdan yoritilgan quyidagi asarlarida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi – “Imkoniyat-baqa haqida” (1460), “Boshqa bo'lmagan haqida” (1462), shuningdek muallifning fikrlari allegik-ramziy shaklga solingan asarlarida – “Berill haqida” (“Ma'naviy ko'zoynaklar” (1458), “Donishmandlik ovi haqida”, “Koptok o'yini haqida” (1463), “Tafakkur cho'qqisi haqida” (1464).

N.Kuzanskiy falsafasida Xudo haqidagi ta'limot markaziy o'rinni egalladi. O'rta asr sxolastik an'alariga asoslanib fikr yuritgan mutafakkirning tushuntirishicha, Xudo borligi, tabiat borligi va inson borligini shakllanishida xal kiluvchi axamiyatga egadir. Lekin Xudo «o'zgacha» «borliq-imkoniyat», «o'zi imkoniyat», eng muxim «absolyut maksimum» ekanligini, olam esa «cheklangan maksimum»lar cheksizligini ko'rsatdi. Xudo maksimallik va minimallikning uyg'unlashuvi ekanligidan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni ilgari surdi: birinchidan, Xudo olamdagi xamma narsada namoyon bo'ladi. Shuning uchun xam olamni Xudodan tashqarida deb o'ylash bemanilidir; ikkinchidan, Xudo sabab va oqibat birligidir, ya'ni uning o'zi xam yaratuvchi, xam yaraluvchidir; uchinchidan, olamda ko'zga ko'rinadigan narsalarning mohiyati xam Xudoga borib taqaladi. Bunday xolat olamning birligidan dalolat beradi. N.Kuzanskiy kosmologiyasining asosida er koinot markazi emas, degan qoida yotadi. Uning fikricha, er ham boshqa sayyoralarga o'xshash tabiatga ega bo'lib, doimo xarakat-lanib turadi. Bunday fikr o'rta asrlarda uzoq vaqtlardan buyon xukmronlik qilib kelgan, koinotni markazida er turadi. Boshqa sayyoralar erning atrofida aylanib turadi, degan tasavvurga qarshi edi. Tabiat borlig'i, N.Kuzanskiyning fikricha, bir butun yaxlit organizm bulib, dunyoviy jok tomonidan ilxomlantirib turiladi. SHuning uchun xam bu dunyoning hamma qismlari bir-biri biln o'zaro aloqadorlikda bo'lib, doimo harakat xolatida bo'ladi. Tabiat qarama-qarshi kuchlar, xolatlarning yig'indisidan iboratdir. N.Kuzanskiy falsafasida inson muammosi asosiy o'rinni egalladi. N.Kuzanskiy xristianlikdagi inson tug'risidagi g'oyalardan yuz o'girdi va bu borada insonni o'ziga xos «kichik olam» deb xisoblagan antik falsafiy g'oyalari tayandi. «Kichik olam», ya'ni insonning o'zi va «katta olam», ya'ni

universum «maksimal olam» — iloxiy mutloq tushunchalarni muomalaga kiritdi. Uning tushuntirishicha, kichik olam katta olamga, katta olam esa maksimal olamga o`xshaydi. N.Kuzanskiy insonni Xudoga shunchalik o`xshatadiki, natijada inson iloxiylashtiriladi. N.K. in-sonni «insoniylikning Xudosi» yoki «insonlashgan Xudo» deb ataydi. Uning fikricha, inson cheklangan va cheklanmagan moxiyat, cheksizlik va chek-langanlikning dialektik birligidan iboratdir. Inson Xudo yaratgan jamiki mavjudotlarning hammasidan xam ustun turadi. Mavjudotlar ichida faqat farishtalar Xudoga yaqinlashib borgan, xolos. «Inson tabiati aylana ichida chizilgan ko`p burchakdir, aylana esa iloxiy tabiatdir». Kuzanskiyning ta`kidlashicha, inson mikrokosm sifatida tabiatni bilish uchun zarur bo`lgan barcha tabiiy qobiliyatlarga ega. Uning bilish imkoniyatlari aql yordamida amalga oshiriladi. Aql individuallik maxsuli bo`lib, inson tanasining tuzilishi, uning vujudga kelishi uchun asosiy shart vazifasini bajaradi. Insonda uch xil qobilyat bo`lgani uchun aql xam uch xil: xissiyot (his qilish, kuzatish, tasavvur)ga asoslangan aql; idrokka asoslangan aql; fikr-muloxazaga asoslangan akl. N.K. missiy bilishni aqlning eng cheklangan qobiliyati deb xisobladi. Bunday qobilyat xatto hayvonlarda xam mavjud. Insonning xissiy bilish jarayonining dastlabki bosqichida, voqealar bir-biridan ajratiladi, tasavvurlar tartibga solish uchun zarur buladi. Lekin xar qanday xis-tuyg`u, xar qanday tasavvur yordamida Xudoni bilib bo`lmaydi. Ular tabiatni bilish vositasidir, xolos. Kuzanskiy tabiatni bilish mumkinligiga xech qanday shubxa bildirmaydi. N.K.ning ta`kidlashicha, fikr-muloxaza insonning oliy bilish qobiliyatidir. Bilish jarayoni qarama-qarshi momentlar birligidan, chunonchi, bilingan tabiatni va bilinmagan Xudoni, his-tuyg`u va idrok etishning cheklangan va aqlning eng yuqori cheklanmagan imkoniyatlaridan iboratdir. N.K.ning fikricha, inson o`zining bilish borasidagi faoliyati yordamida xaqiqatni aniqlashga qodir. Olamning moxiyati to`g`risida ozmi-ko`pmi aniq yoki noaniq tasavvurlarga ega bo`ladi. Lekin iloxiyot yordamida bunga erishib bo`lmaydi. Chunonchi, keng qamrovli olamni bilish faqat iymon-e`tiqodning ishi emas, balki fikr - muloxazaning ishidir. Kuzanlik tabiiy ilmiy masalalarga katta e`tibor qaratuvchi gumanistik ta`lim vakili bo`lgani uchun ham quruq safsatabozlik dushmani bo`lgan. Kuzanlikning quruq muhokama-tasavvufga asoslangan tuzilmaga oid yo`nalishlariga naturalistik mulohaza va g`oyalarning kirib kelishiga ham aynan shu narsa sabab bo`lgan. Falsafa tarixiga bag`ishlangan turli kitoblarda Nikolay Kuzanskiy odatda platonik sifatida xarakteralanadi. Haqiqatan ham, u ko`p hollarda Platonga yuzlanadi. Biroq uning Platonga ergashganligini, unga florensiyalik platonistlarga qadar mavjud bo`lgan neoplatonizmning ta`siri nuqtai nazaridan kengroq tushunish lozim. Prokl – uning uchun muhim bo`lgan falsafiy nufuzga ega bo`lgan shaxslardan biridir. Ma`lumki, Areopagitiklar neoplatonizmning ulkan ta`siriga tushib qolganlar (ayniqsa aynan Proklning ta`siriga). Biroq Kuzanlikni faqatgina platonik deb hisoblash to`g`ri emas. Masalan, u doimo pifagorizm g`oyalari juda qadrlagan, va ayrim hollarda platonizm g`oyalari uning oldida ikkinchi darajaga o`tib qolgan. Nikolay boshqa anitik davrning Avgustin, Boesiy, Suqrat, Anaksagor kabi faylasuflari va ilohiyotchilari, stoiklar va atom g`oyasini ilgari suruvchilarning g`oyalari turli ko`rinishlarda qo`llaydi.

Xulosa qiladigan bo`lsak, Kuzanskiy e`tiqodni bilimdan ustun qo`yadi va buni nafaqat ilohiy-fideistik nuqtai nazardan, balaki falsafiy-gnoseologik nuqtai nazardan ham amalga oshiradi. “Olimona bilmaslik” muallifi “barcha tushunishlar e`tiqoddan boshlanadi, deya ta`kidlagan” o`qituvchilarning fikriga qo`shiladi. Bunda ko`r-ko`rona, ongsizlarcha e`tiqod haqida gap ham bo`lishi mumkin emas. “Aql e`tiqod bilan boshqariladi, e`tiqodga esa aql bilan erishiladi”. Kuzanskiyning borliq haqidagi ta`limoti dialektik, chuqur dialektika esa uning bilim haqidagi ta`limotida ham mavjud. Bu kabi dinamiklikning muhim ifodasi uning borliq konstantalarining nisbiyligini qat`iyan ajratib ko`rsatuvchi qarama-qarshiliklar haqidagi ta`limotidir. Borliq ma`lum birikmalari u yoki bu narsalarga aniqlik kirituvchi eng turli qarama-qarshiliklardan iborat. Jonli qarama-qarshilikni jismoniy mavjudot sifatida va o`z ruhiyatida

ilohiy o'zgaraslikni anglashga intilishi cheksiz bo'lgan inson tashkil etadi. Biroq eng muhim ontologik qarama-qarshilik – ilohiy mavjudotning o'zidir. Hech qaerda egallanmaydigan va “barcha narsadan bo'lgan hech nima” sifatida emas, balki barcha erda mavjud bo'luvchi sifatida u “barcha narsadir”. Kuzanlik o'ta oddiylik, o'zgarasning “quyulishi” uni engib o'tishga intilgan holda xuddi ummonga singib ketgan tomchidek jamiki ziddiyatlar va qarama-qarshiliklardan holi ravishda unga singib ketadilar, deya ko'p marotaba ta'kidlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Falsafa: qomusiy lug'at. –Toshkent: Sharq, 2004. –496 b.
2. Filosofskaya ensiklopediya. V 5-tomax. T. 5. –M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1967. – 592 s. Filofskiy slovar –Rostov n/D: Feniks, 2004. –560 s. (Seriya «Slovari»).
3. Filosofskiy ensiklopedicheskiy slovar. –M.: Sovetskaya ensiklopediya,1983. –840 s.
4. Gorfunkel A.X.Filosofiya epoxi Vozrojdeniya.
5. Kuzanskiy N. Soch.v 2-x tomax.M.1979.
6. Kuzanskiy. Ob uchenom neznanii.— Nikolay Kuzanskiy. Sochineniya.
7. N.Komilov.Tasavvuf.T. 2014.
8. 8.S.Yo'ldoshev,M.Usmonov,R.Karimov.Qadimgi va o'rta asr G'arbiy Evropa falsafasi.Sharq,.Toskkent.2003.